

2-25-2020

THE EXPRESSION OF THE MEANING OF UNCERTAINTY WITH NUMBERS AND THE WORD "ONE" IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Mavlyuda Gadoyeva Ibragimovna

Associate Professor of English, Bukhara State University, Candidate of Philological Sciences

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu>



Part of the [Linguistics Commons](#)

Recommended Citation

Ibragimovna, Mavlyuda Gadoyeva (2020) "THE EXPRESSION OF THE MEANING OF UNCERTAINTY WITH NUMBERS AND THE WORD "ONE" IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES," *Scientific reports of Bukhara State University*. Vol. 4 : Iss. 1 , Article 23.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss1/23>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific reports of Bukhara State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

9. Mohri M.A. *Finite-state transducers in language and speech processing*. *Computational Linguistics*, 23B), 269-312.
10. Ножов И.М. *Морфологическая и синтаксическая обработка текста (модели и программы): диссертация канд. наук. – с. 190.*
11. Пономарев В.В. *Лингвистическое обеспечение и социолингвистическая специфика проблемы автоиндексационной актуализации информационных систем: автореф. диссер. канд. филол. наук. – Москва, 2005.*
12. Daniel S. Jurafsky and James H. Martin. *Speech and Language Processing*. Contributing writers: Andrew Kehler, Keith Vander Linden, Nigel Ward 2000 y. Prentice Hall, Englewood Cliffs, New Jersey 07632. pages: 950
13. *The Lexical Semantics of a Machine Translation Interlingua*. Rick Morneau // http://www.eskimo.com/~ram/lexical_semantics.html 2006.
14. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

УДК: 801,2

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA NOANIQLIK MA’NOSINING SONLAR
VA “BIR” SO‘ZI ORQALI IFODALANISHI**

**ВЫРАЖЕНИЕ ЗНАЧЕНИЯ НЕОПРЕДЕЛЕННОСТИ ИМЯ ЧИСЛИТЕЛЬНЫМИ
И СЛОВОМ “ОДИН” В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**THE EXPRESSION OF THE MEANING OF UNCERTAINTY WITH NUMBERS
AND THE WORD “ONE” IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna
BuxDU ingliz tilshunosligi kaf. dos., fil.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqola Ingliz va O‘zbek tillarida noaniqlik ma’nosining sonlar va “bir” so‘zi orqali ifodalanishiga bag‘ishlangan.

Tayanch so‘zlar: noaniqlik, tipologiya, miqdor, tushuncha, morfologik kategoriya, affiks, sanoq sonlar, noaniq artikl, taxminiy son.

Аннотация. В данной статье анализируется выражение неопределенности количества имя числительными и словом “один” в английском и в узбекском языках.

Ключевые слова: неопределённость, типология, количество, концепт, морфологическая категория, аффикс, количественное числительное, неопределённый артикль, приблизительное количество.

Annotation. This article is dedicated to the expression of the meaning of the category of uncertainty with the help of numbers and word “one” in the English and Uzbek languages.

Key words: indefiniteness, typology, quantity, concept, morphological category, affix, countable nouns, indefinite article, approximate number.

Kirish. Ma’lumki, son so‘z turkumi bo‘lib, u miqdorni anglatadi va bu ma’noni rodning morfologik ma’nosi jihatidan joylashtirilgan sonlarda kelishik (ketma-ket bo‘lgan) va rodning (ketma-ket bo‘lmagan) morfologik kategoriyalarida ifodalaydi[5, 784].

Yuqorida keltirilgan iqtibosda berilishicha, son “aniq sonni” ifodalaydi. Lekin keyinchalik biz bir necha holatlarda, birikmalarda va derivatsiyalarda sonning noaniqlikni ifodalashini kuzatamiz.

Sonlar miqdorning mavhum ma’nosini ifodalaydi. Son predmetning belgisini uning miqdori va tartibi jihatidan ifodalaydi.

Noaniqlik ma’nosi asosan predmetlarning taxminiy miqdorini anglatuvchi noaniq – sanoq sonlar orqali ifodalanadi. Bunday sonlarni tilshunoslar turlicha nomlaydilar[16,324; 8,121; 17,4; 12,77-81).

Asosiy qism. O‘zbek tilida sonlarning noaniqligi, asosan, sonlarga bu holatda forma yasovchi vazifasini bajaruvchi so‘z yasovchi affikslarni qo‘shish orqali beriladi.

“ – cha “ affiksi ko‘pgina holatlarda sanoq sonlar bilan birikkan holda noaniqlik ma’nosini ifodalaydi. Bu haqda “O‘zbek tilining akademik grammatikasi”da ham eslatib o‘tilgan[18, 246-247]. Masalan, Uning yaproqlari ko‘k zabarjadan navdalarning uchlarida sarg‘ish durdan, yoqutdan o‘ntacha yirik, yumaloq va porloq mevalari bor edi (Oybek, Qutlug‘ qon, 49).

Noaniq sanoq sonlar eng yuqori daraja miqdorni ifodalovchi affiks “ – larcha” orqali ifodalangan sonlar yordamida yasaladi: “o‘nlarcha, yuzlarcha, minglarcha” va hokazo. “ – tacha“ affiksi ham sanoq sonlar bilan birikkan holda noaniqlikni ifodalaydi: o‘ntacha, yuztacha va hokazo.

Birinci ibora o‘nliklar, yuzliklar orqali ifodalanishi mumkin bo‘lgan shaxslarning katta miqdorini anglatadi. Bunday ma’no predmetlarning taxminiy miqdorini ifodalovchi ikkinchi birikmada mavjud bo‘lmaydi: o‘nga yaqin, yuzga yaqin

Agar son sanoqni anglatuvchi so‘zlar bilan birga ishlatilsa, u holatda “ – cha” shaklidagi “– tacha” affiksi songa emas, balki sanoqni anglatuvchi so‘zga qo‘shiladi: olti kilocha, ikki yilcha va hokazo. Masalan, Yigirma qadamcha narida yana shunday hodisa: bir yuz uchinchi ... (J. Abdullaxonov, Borsa kelmas, 266).

O‘zbek tilida taxminiy sonlar o‘zining ma’nosiga ko‘ra predmetlarning taxminiy miqdorini anglatadi. Bundan tashqari, bunday sonlarga juft sonlar (uch-to‘rt) ham kiradi. Ularning ma’nosini ingliz tilida ifodalaganda noaniq – numeral so‘z birikmalaridan foydalaniladi. Masalan, yuztacha – about a hundred; o‘ntacha, uchta-to‘rtta.

Besh-o‘nta qari-qartang qolganmiz (A. Muxtor, Chinor, 42). Uch-to‘rt marta operatsiya bo‘lgan (A. Muxtor, Chinor, 272).

O‘zbek tilida bo‘lganidek ingliz tilida ham ikkita sanoq son birikmasi noaniqlikni, taxmini ifodalaydi. Noaniq miqdorni ifodalashning bu usuli yanada faolroq hisoblanadi (72, 79).

Ba‘zan uch-to‘rt kunlab qoralarini ko‘rsatasmishlar (Cho‘qqilar chorlaydi, 118).

To‘g‘ri, bir-ikki marta kechikib kelgan bo‘lsam, kelgandirman. Lekin ... (Cho‘qqilar chorlaydi, 132).

It’s only these last two or three years I’ve realized how totally unsuited, they were to each other (J. Fowles, Daniel Martin, 236).

His sister had been with us for five or six days by then and it was clear to me that she wasn’t going to live unless she was told (J. Fowles, Daniel Martin, 261).

It lacks one or two hotel amenities... (J. Fowles, Daniel Martin, 67).

two or three
 five or six +Npl.
 one or two

Zamonaviy o‘zbek tilida taxminiy sonlar analitik usul – noaniqlikni, taxmini ifodalovchi maxsus so‘zlar bilan birga ishlatilgan sanoq va taxminiy sonlarning birikishi orqali yasalishi mumkin. Ko‘proq, mo‘lroq, ortiq, ziyod kabi so‘z birliklari bilan birikkan holda sonlar eng yuqori noaniq miqdor tushunchasini ifodalaydi. Bu so‘zlar katta miqdorni anglatuvchi sonlar: o‘n, yuz, ming bilan birikadi:

Mana shu noyob uskunalar soni Yaponiyada 3500 dan ortiq, ammo bizda bir dona ham yo‘q. (gazetadan). Yuzdan ziyod kitob (lug‘atdan). Yig‘ilishga yuzdan ortiq kishi keldi (gazetadan). Ma‘lumki kishi organizmidagi mavjud 50 foizidan ortiqroq kasalliklarning tashqi muhitning salbiy ta‘siri vujudga keltiradi (gazetadan).

yuzdan ziyod
 yuzdan ortiq N(pl.)
 50 foizidan ortiqroq

Yuqorida keltirilgan gaplardagi ko‘proq, mo‘lroq so‘zlarini sonli birikmalarda taxminiy ko‘plikning belgisini saqlab qoluvchi so‘zlar ortiq, ziyod bilan almashtirish mumkin.

Ingliz tiliga tarjima qilganda taxmini ifodalovchi so‘zlar guruhi qo‘llaniladi. Bu guruhga quyidagi so‘zlar kiradi: about, nearly, over, more, some va hokazo.

However, here I was over twenty years later, flogging myself over back with Kitchener, (J. Fowles, Daniel Martin, 75-76).


Nearly one hundred years (BARS, 83).

About your size. About thirty miles (BARS).

It costs some twenty pounds (BARS).

We were something over a hundred (BARS).

Some hundred people (BARS).



Keyingi vaqtlarda ingliz tilida kvantifikatorlarni noaniq miqdorni ifodalovchilar sifatida o'rganish bo'yicha bir necha ilmiy ishlar qilindi. Bu ishlarga E.V.Shebetenko va boshqalarning ilmiy izlanishlari kiradi[17].

E.V. Shebetenkoning ilmiy ishi zamonaviy ingliz tilida kvantifikator – so'zlarni o'rganishga bag'ishlangan. Muallif har bir kvantifikatorni alohida va batafsil ko'zdan kechiradi. Uning ishida several, some, a few, few, little, much, many, all kabi so'zlar tahlil qilinadi.

E.V. Shebetenko kvantitativ axborotni anglatmaydigan so'z birliklari about, nearly, over va boshqalar bilan birikkan holda sonlar aniqlik ma'nosini yo'qotish qobiliyatiga ega ekanligi va miqdorning taxminiy ekanligini ifodalashini ta'kidlaydi.

Bu miqdor tilda noaniq miqdor xarakteristikasi ma'nosini yaqindan o'ziga qamrab oluvchi sferani yaratadi. Sonlar over, some, more so'zlari bilan birikkan holda noaniq ko'plikning taxminiylikini ifodalaydi.

“bir + ot “ iborasi noaniqlik ma'nosini ifodalaydi.

Masalan, bir narsa, bir kuni, bir yigit, bir ayol, bir bechora, bir parcha, bir nima va hokazo.

Biroq muyulishda bir kishi qorasini ko'rib, sochi tomirlarigacha muzlab ketdi (A. Muxtor, Chinor, 228).

Ishni boshlayolmayapman. Bir nima xalaqit berayapti (A. Muxtor, Chinor, 55). Orif aka yana bir narsani sezdi, buxgalter bilan finansist unga shunchaki qobiliyatli student, yoqlaydigan dissertatsiyasini yod bilishi kerak bo'lgan zehni chaqqon yigitcha debgina qarar ekanlar (A. Muxtor, Chinor, 59).

Bir kuni unga bir sho'x shofyor bola daladagi simyog'ochlarni sotib ketibdi. (A. Muxtor, Chinor, 79).

Bir kuni uzoq sovxozdan kechasi qaytib, ertalab ishga duch keldi (A. Muxtor, Chinor, 84).


Ehtimol bir kun borib yarashardik (A. Muxtor, Chinor, 170 – 171).

Otasidan norozilik xatlarini olaverganidan keyin, Valera bir kuni kutilmaganda bir sariq qizni yetaklab qaytib keldi (A. Muxtor, Chinor, 186).

“ bir + necha ” nisbiy olmoshi so'z birikmasi miqdorning noaniqligini ifodalaydi:

Bir necha qo'llar ko'tarilib, havoda silkinardi (M. Abdullaxonov, Borsa kelmas, 159).

“bir + “- on” , “- or” + ta” affiksi” birikmasi noaniqlikni ifodalaydi.




Shulardan birontasi ko'ndalang turib qolsa, o'ziga to'qnashmasa ham, ikki tomonidagi kuchli oqimni yorib o'tish mahol bo'ladi (A. Muxtor, Chinor, 140).

Birortalari uni to'xtatib qolish haqida o'ylamasdilar (J. Abdullaxonov, Borsa kelmas, 241).

Million, hundred, thousand so'zlari ot ma'nosida ishlatilganda ko'plikda – s qo'shimchasini oladi. Otlar taxminan aniq sonni ifodalagan holda katta miqdor ma'nosini anglatish uchun qo'llaniladi. Bunday holatda bu otlar ko'plik sonida qo'llaniladi[7, 39].

Millions of people, thousands of men, hundreds of children:



Hundreds of thousands of people have been executed without trial. Millions of people in all parts of the world ... (N. Mironov, “Law, Progress and Peace”, M., 2016, 109, 132).

Ingliz tilidagi bu iboralar va birikmalar o‘zbek tiliga har xil usullar orqali tarjima qilinishi mumkin. Bu usullardan asosiylari quyidagilardan iborat:

a) o‘zbek tilidagi “ – lab ” suffiksi orqali: yuzlab, minglab, milionlab, bu morfologik jihatdan berilish usuliga kiradi;

b) takrorlash orqali: yuz – yuz, ming – ming, million – million.

Dehqonlar, bog‘bonlar, chorvadorlar Davlat siyosat boshqarmasining minglab xodimlari uyqudan, oromdan kechib, ular hayotini, tinchini, farog‘atini, qo‘riqlab turganini balki xayollariga ham keltirmasalar kerak... (H. G‘ulom, Mangulik, 87).

Bugun o‘nlab zavod va fabrikalar o‘zlarining mohir qo‘lli, ajoyib ishchilaridan ajralishgan (gazetadan).

Axir bugun shahrimizda o‘nlab poliklinikalar bor (gazetadan).

Tamara Rabdilla ismli no‘g‘ay savdogarning qizi bo‘lib, katta-katta shaharlarga qatnab savdo qiluvchi bu muhojirning banklardagi million-million pullari, mol-mulki musodara qilingach, u qizi bilan ko‘rasini oshnasi Norxo‘jaboyga topshirib, xotini bilan birga Turkiyaga qochgan (H. G‘ulom, Mangulik. 74).

Ming-ming botmon yeri bo‘lgan, ming-ming kishi ishlatgan, xotin ustiga xotin olgan! ... (H. G‘ulom, Mangulik. 75).



Zamonaviy o‘zbek tilida “bir” so‘zi ot bilan birikkan holda noaniqlikni ifodalaydi.

Deyarli hamma tillarda “bir” soni noaniqlik asosiy ko‘rsatkichining hosil bo‘lishi manbai bo‘lib xizmat qiladi.

“bir” so‘zi yarim ma’noda son vazifasini, shuningdek, gumon olmoshi va noaniq artikl vazifasini ham bajarishi mumkin.

Bir necha tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, “bir” so‘zi noaniqlik ko‘rsatkichi vazifasini bajaradi [9, 167; 9, 217; 3,42-45].

A.N. Kononovning ta’kidlashicha, “bir” so‘zi uch xil ma’noda qo‘llaniladi:

1) “bir”, “yagona” sanoq soni; Bir kitob;

2) noaniq a’zo - “qandaydir, kimdir”; Bir kishi keldi;

3) aniqlovchining ma’nosini kuchaytiruvchi element; bu holatda “bir” so‘zi aniqlovchi sifat, ravish va aniqlanmish ot o‘rtasida turadi: Ajab bir xalqsan...

Bu so‘z turkiy tillarda, noaniq artikl hind – yevropa tillaridagi kabi, o‘ziga teng bo‘lgan ko‘p predmetlar orasidan qandaydir bir predmetni ajratib ko‘rsatadi.

M.M. Shetinskiy birorta tilda ham noaniq artiklning “formal” ishlatilishi yo‘qligini ta’kidlaydi. Bu esa unga quyidagi umumiy ma’noni aniqlashga yo‘l ochib beradi: noaniq artikl predmetni o‘ziga xos predmetlar fonida ifodalaydi, lekin “bir” esa ko‘pchilikdan bittasidir va noaniq artiklning ma’nosi sonning ma’nosi bilan uzviy bog‘liqdir; fonetik differentsiatsiya sodir bo‘lmagan tillarda “bir” ma’nosini anglatuvchi so‘zning ko‘p ma’noziligi haqida savol tug‘iladi[15, 30].

Biroq S.S. Mayzel’ning to‘g‘ri ta’kidlashicha, [10, 62] noaniq artiklning va “bir” so‘zi bilan ifodalangan sanoq sonning ma’nosini qarama-qarshi deb qaramaslik kerak, chunki “bir” faqat noaniqlikni ifodalagan holatlarda ham, u bir vaqtning o‘zida yagonalikni ham ifodalaydi, boshqacha aytganda, turk tilidagi “bir” fransuz tilidagi artikl kabi sonni ham ifodalaydi.

1. “bir” so‘zi bir necha affiksalar ishtirokidagi birikmalarda noaniqlik ma’nosiga ega bo‘ladi: “bir” so‘zi “ – ov” affiksi bilan birga ishlatilganda shaxsning noaniqligini ifodalaydi, ya’ni olmoshga almashadi.

Birov ketadi, birov keladi, har kimning ixtiyori o‘zida (A. Muxtor, Chinor, 341). Birov kelsa, uni ham darrov qafaslari tomon boshlab qaysi jonivor qanday hayot kechirishiyu, nima yeyishlarigacha tushuntirardi (J. Abdullaxonov, Borsa kelmas, 88).

2. “bir” so‘zi “ – or”, “ – on” affikslari bilan ishlatilganda noaniq belgini ifodalaydi:


U biror jiddiy masala ustida fikr yuritganda shunday qilar edi (S. Anorboyev, Qissalar, 136). Biron ulfatga yo'liqqani aniq. Ma'yus ko'zlarida allaqanday hadiksirash, dard bor (A. Muxtor, Chinor, 201).

3. "bir" so'zi " – or", " – on" affikslari bilan birikkan holda predmetning noaniqlik belgisini ifodalaydi: bironta, birorta.

Ammo biror kimsaning qorasi ko'rina qolmasdi (J. Abdullaxonov, Borsa kelmas, 32). Birorta ot qo'shilgan kultivator bo'lganda sal tezlasharmidi ... (J. Abdullaxonov, Borsa kelmas, 295).

4. "bir" so'zi kun, vaqtlar, nafas, dam, lahza, payt so'zlari bilan birga ishlatilganda vaqtning noaniqligini aniqlaydi (14).

Bir kun xotini Nafisa homiladorligi tufayli qaynonasiga peshvoz chiqmaganligi uchun rosa gap eshitibdi (Cho'qqilar chorlaydi, 108). Yana bir nafasdan so'ng idishlar ship-shiydam bo'shab, dasturxonning har yer-har yerida uzumdan qolgan po'choq uyumlari hosil bo'ldi (Cho'qqilar chorlaydi, 61). Bir mahal o'ziga kelib, quyosh yelkasini qizdirayotganini, chanqaganini tuydi (Cho'qqilar chorlaydi, 32). Bir lahzadan suvga zarb bilan irg'atilgan bo'sh shishaday otilib chiqib pishqirdi (Cho'qqilar chorlaydi, 66). Bir vaqt qarasa, Akbarali suyanib o'tirib uxlab qolibdi (A. Muxtor, Chinor, 200).




5. "bir" so'zi + (ot) vaqt. Agar birikma " – lar" affiksini olsa, u holatda noaniqlik ma'nosi tushunarliroq ifodalanadi:

Bir vaqtlar juda baquvvat sportchi yigit bo'lgan ekan (A. Muxtor, Chinor, 304).

6. "bir" + "nima" nisbiy olmoshi birikmasi predmetning noaniqligini ifodalaydi:

U tuni bilan dam yerto'laga kirib, dam dalada aylanib, bir nimalarni o'ylab chiqdi (A. Muxtor, Chinor, 124). Bir nima xalaqit berayapti (A. Muxtor, Chinor, 55).



7. "bir" + "narsa" birikmasi ham predmetning noaniqligini ifodalaydi:

Sal yozilib, sof havoga tuygandan keyin, to'satdan hushiga kelganday, bir narsa esiga tushdi; qiziq, borishda – ku baxtiyor damlar, ham shirin, quvonchli voqealar lip-lip etib xayolidan o'taverdi, qaytishda bo'lsa nuqul xunuk, ko'ngilsiz xotiralar cho'lg'ab olyapti (A. Muxtor, Chinor, 47).


8. "bir" + "parcha" birikmasi partitiv noaniqlikni ifodalaydi:

Bu bir parcha xat betga choparlik ... (A. Muxtor, Chinor, 69).

9. "bir" so'zi ot bilan ishlatilganda ham shaxsning noaniqligini ifodalaydi:


Sattorginam binoyiday ishlab yuribdi, martabasi, obro'si joyida, qirchillama yigitga nima ko'p, qiz ko'p, hali, shunday bir qizni olib berayki xudo xohlasa! (A. Muxtor, Chinor, 137). Mulla Abdulahadning orqasida boldiriga qizil charm ko'nj-kraga kiygan novcha bir muhojir g'azablanar edi (A. Muxtor, Chinor, 317).

10. "bir" + "qancha, necha" nisbiy olmoshi birikmasi miqdorning noaniqligini ifodalaydi: bir qancha, bir necha:



Yo'lchi uni mahkam quchoqlab ko'tarib, bir qancha qadam nariga eltib tashladi (Oybek, Qutlug' qon, 53). Mas'ud asta-sekin yorishib kelayotgan tong quchog'ida, salqin daryo bo'ylab otda tebranib borar ekan, ertaga, yo'q, nega endi ertaga – bugun, yana bir necha soatdan keyin bo'ladigan va ehtimol, hech qachon takrorlanmaydigan uchrashuv oldidan shu ikki muhim savolga o'zicha javob berib ko'rmoqchi (H. G'ulom, Mangulik, 222).

11. "bir" + ravish birikmasi miqdorning noaniqligini ifodalaydi:



Mas'ud bir oz o'ylanib turgach, yana bir maslahat berdi: - Ammo onangizni bu yo'ldan qaytarish mumkin (H. G'ulom, Mangulik, 134). Ikkinchi guruhdagilarga birmuncha do'q qiladi, shu bilan skladlarda cho'kib qolgan gazlamalarni yaxshi baho bilan ularga o'tkazib yuboradi (Oybek, Qutlug' qon, 7).

Xulosa qilib aytish mumkinki, about, nearly, over va boshqalar bilan birikkan holda sonlar aniqlik ma'nosini yo'qotish qobiliyatiga ega ekanligi va miqdorning taxminiy ekanligini ifodalashini ta'kidlaydi.

Bu miqdor tilda noaniq miqdor xarakteristikasi ma'nosini yaqindan o'ziga qamrab oluvchi sferani yaratadi. Sonlar over, some, more so'zlari bilan birikkan holda noaniq ko'plikning taxminiyligi, ya'ni noaniqligini ifodalaydi.

"Bir" so'zi so'z turkumlari bilan birikkan holda shaxs, predmet, vaqt, miqdor va sifatning predmet belgisi va hokazolarning noaniqligini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллахонов Ж. *Борса келмас*. – Т., 1978. – 311 б.
2. Асқад М. *Чинор*. – Т., 1983. – 390 б.
3. Асқарова М., Исоқов И., Саидниёзова Х. "Бир" сўзининг қўлланиши ҳақида. *Ўзбек тилишунослигининг айрим масалалари. Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика институти. Илмий асарлар - 87- том*. – Т., 1984. – С. 42-45.
4. Беклярбекова А.А. *Артиклевая функция родительного и винительного падежей и слово "бир" в современном азербайджанском языке*. - Автореф. ... канд. филол. наук. – М., 1996.
5. *Грамматика русского языка, т.1*. – М.: Наука, 1982. – 784 с.
6. Дмитриев Н.К. *Исследование по сравнительной грамматике тюркских языков*. – М.: 1995, ч. I. - 336 с.
7. Иванова И.П., Бурлакова В.В., Почепцов Г.Г. *Теоретическая грамматика современного английского языка*. – М.: Высшая школа, 1991. – С. 39.
8. Кононов А.Н. *Грамматика узбекского языка*. – М.-Л., 1990. – С. 121.
9. Кононов А.Н. *Грамматика современного узбекского литературного языка*. – М.-Л., 1990. – 446 с.
10. Майзель С.С. *Изафет в турецком языке*. – М.-Л., 1987. – С. 61.
11. Ойбек. *Қутлуг қон*. – Т., 1966. – 344 б.
12. Саидниёзова Х.М. *Пути передачи приблизительных числительных с узбекского языка на английский*. В сб.: *Структурно-семантическая организация языковых единиц*. – Т., 1994. – С. 77- 81.
13. Fowles J. *Daniel Martin*. – USA. 1978. – 673 p.
14. Щebetенок Е.В. *Группа квантификаторов как лексико-грамматическая система выражения неопределенного количества в английском языке*. - Автореф. ... канд. филол. наук. – М., 1996.
15. Щетинский Н.М. *К вопросу о природе артиклей*. – М., 1988, Т.132. – С. 30.
16. *Ўзбек тили грамматикаси. Морфология*. – Т.: Фан, 2005, т.1. – 610 б.
17. Ҳожиёв А. *Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар*. – Т., 1999. – С. 4.
18. *Ҳозирги ўзбек адабий тили*. – Тошкент, 20016, I қисм, Морфология. – 448 б.

УДК: 81.366

РАВИШНИНГ СЎЗ ТУРКУМЛАРИ БИЛАН ИНТЕГРАЦИЯСИ ВА ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯСИ

ИНТЕГРАЦИЯ И ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ НАРЕЧИЙ С ДРУГИМИ ЧАСТЯМИ РЕЧИ

INTEGRATION AND DIFFERENTIATION OF THE ADVERB WITH OTHER PARTS OF SPEECH

Асадов Тўлқин Ҳамроевич
БухДУ доц., филол.ф.н.

Аннотация. Мазкур мақолада мустақил маъноли ўзгармас сўзлар, яъни равишлар, хусусан, уларнинг этимологик таркиби ўрганилган. Шунингдек, равиш бўлиб шаклланган